

Navoiy viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Navoiy viloyati, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 9 245,0 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 8 857,1 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 290,2 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 97,7 mlrd so'mni tashkil qildi.

Navoiy viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xatirchi (2 591,3 mlrd so'm), Qiziltepa (1 715,0 mlrd so'm), Navbahor (1 418,2 mlrd so'm), Karmana (1 282,3 mlrd so'm), Nurota (693,4 mlrd so'm), Konimex (556,7 mlrd so'm), Tomdi (481,1 mlrd so'm) va Uchquduq (320,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G'ozg'on shahri (78,9 mlrd so'm), Navoiy shahri (57,5 mlrd so'm) va Zarafshon shahrini (49,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati %
Navoiy viloyati	9 245,0	104,1
Navoiy shahri	57,5	117,5
Zarafshon shahri	49,8	103,8
G'ozg'on shahri	78,9	102,0
<i>tumanlari</i>		
Konimex tumani	556,7	106,3
Qiziltepa tumani	1 715,0	103,0
Navbahor tumani	1 418,2	103,8
Karmana tumani	1 282,3	104,0
Nurota tumani	693,4	106,2
Tomdi tumani	481,1	104,6
Uchquduq tumani	320,8	104,1
Xatirchi tumani	2 591,3	103,7

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Navoiy shahri (117,5 %), Konimex (106,3 %), Nurota (106,2 %), Tomdi (104,6 %) va Uchquduq (104,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Karmana (104,0 %), Navbahor (103,8 %), Zarafshon shahri (103,8 %), Xatirchi (103,7 %), Qiziltepa (103,0 %) va G'ozg'on (102,0 %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 8 757,2 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 1 870,0 mlrd so'mni (104,4 %), chorvachilik mahsulotlari 6 887,3 mlrd so'mni (103,9 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (2 408,3 mlrd so'm), Qiziltepa (1 622,3 mlrd so'm), Navbahor (1 346,9 mlrd so'm) va Karmana (1 209,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G'ozg'on shahri (78,3 mlrd so'm), Zarafshon shahri (49,6 mlrd so'm) va Navoiy shahrini (49,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Navoiy shahri (119,5 %) Konimex va Nurota (106,2 %), Tomdi (104,6 %), Karmana va Zarafshon shahri (104,1 %) va Uchquduq (104,0 %) tumanlarida qayd etildi. Navbahor (103,9 %), Xatirchi (103,5 %), Qiziltepa (103,0 %), va G'ozg'on (102,1 %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 77,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 17,0 % i fermer xo'jaliklariga, 5,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmi 1 870,0 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (618 297,1 mln so'm), Qiziltepa (460 023,3 mln so'm), Navbahor (346 876,7 mln so'm), Karmana (305 709,8 mln so'm) va Konimex (71 152,5 mln so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nurota (50 454,7 mln so'm), Navoiy shahri (15 675,0 mln so'm), G'ozg'on shahri (1 664,3 mln so'm) va Zarafshon shaharini (130,1 mln so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Nurota (108,9 %), Konimex (107,7 %), Xatirchi (104,9 %), va Qiziltepa (104,4%) tumanlarida qayd etildi. Navoiy shahri (104,1 %) Navbahor (103,4 %), Karmana (103,1 %), G'ozg'on shahri (102,5 %) va Zarafshon (50,5 %), shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 212,6 ming tonna donli ekinlar (2024-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,5 % ga ko'p), 67,1 ming tonna kartoshka (3,2 % ga ko'p), 76,4 ming tonna sabzavotlar (3,9 % ga ko'p), 9,8 ming tonna poliz ekinlari (6,1 % ga ko'p), 38,3 ming tonna meva va rezavorlar (5,3 % ga ko'p), 2,9 ming tonna uzum (11,6 % ga ko'p) yetishtirildi.



Etishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Yanvar-iyun 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Donli ekinlar, ming tonna.	212,6	103,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	188,8	103,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	11,0	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,8	111,0
Kartoshka, ming tonna.	67,1	103,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,2	104,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	59,7	103,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	92,1
Sabzavotlar, ming tonna.	76,4	103,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,7	110,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	62,4	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,3	110,5
Poliz ekinlari, ming tonna.	9,8	106,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,2	100,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	7,6	107,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,033	113,8
Meva va rezavorlar, ming tonna.	38,3	105,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	13,1	113,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	24,6	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,6	120,5
Uzum, ming tonna.	2,9	111,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,4	113,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,5	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,007	116,7



2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning 88,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 5,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

**2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari (tonna)**

	<i>Donli ekinlar</i>	<i>Kartoshka</i>	<i>Sabzavotlar</i>
Navoiy viloyati	212 634	67 119	76 383
Navoiy shahri	-	259	1 644
Zarafshon shahri	-	-	15
G'ozg'on shahri	-	187	28
<i>tumanlari</i>			
Konimex tumani	12 254	885	2 314
Qiziltepa tumani	64 900	17 291	17 011
Navbahor tumani	41 124	17 288	13 471
Karmana tumani	28 823	9 256	16 571
Nurota tumani	1 738	1 559	2 308
Tomdi tumani	-	-	-
Uchquduq tumani	-	-	-
Xatirchi tumani	63 795	25 394	23 021

Shunga mos ravishda kartoshkaning 10,8 % i fermer xo'jaliklariga, 88,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, sabzavotlarning 7,5 % i fermer xo'jaliklariga, 81,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining 22,2 % i fermer xo'jaliklariga, 77,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning 34,3 % i fermer xo'jaliklariga, 64,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning 84,0 % i fermer xo'jaliklariga, 15,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari (tonna)

	<i>Poliz ekinlari</i>	<i>Meva va rezavorlar</i>	<i>Uzum</i>
Navoiy viloyati	9 761	38 327	2 874
Navoiy shahri	12	149	-
Zarafshon shahri	-	5	-
G'ozg'on shahri	-	101	-
<i>tumanlari</i>			
Konimex tumani	551	974	7
Qiziltepa tumani	1 992	6 083	456
Navbahor tumani	1 324	7 498	391
Karmana tumani	1 427	6 449	96
Nurota tumani	405	2 687	45
Tomdi tumani	-	-	-
Uchquduq tumani	-	-	-
Xatirchi tumani	4 050	14 381	1 879

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (1 790,0 mlrd so'm), Qiziltepa (1 162,2 mlrd so'm), Navbahor (1 000,1 mlrd so'm), Karmana (903,9 mlrd so'm) va Nurota (621,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G'ozg'on shahri (76,6 mlrd so'm), Zarafshon shahri (49,5 mlrd so'm) va Navoiy shahrini (33,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Navoiy shahri (129,8 %), Nurota (105,9 %), Konimex (105,8 %), Tomdi (104,6 %), Karmana (104,5 %), Zarafshon shahri (104,4 %), Navbahor (104,1 %) va Uchquduq (104,0 %), tumanlarida qayd etildi. Xatirchi (102,9 %) Qiziltepa (102,4 %) va G'ozg'on (102,1 %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 88,1 ming tonna go'sht, 246,5 ming tonna sut, 215,5 mln dona tuxum, 298,6 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 4,0 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, sog'ib olingan sut – 103,4 % ni, olingan tuxum – 105,9 % ni, olingan qorako'l teri – 103,1 % ni hamda ovlangan baliqlar – 108,1 % ni tashkil qildi.



**2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-iyun 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna.	88,1	104,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,1	112,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	74,7	102,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,3	109,0
Sut, ming tonna.	246,5	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	19,9	110,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	220,8	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,8	118,1
Tuxum, mln. dona.	215,5	105,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23,9	114,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	139,5	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	52,1	118,4
Jun, tonna.	2 795,0	103,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	654	103,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 694	102,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	447	112,3
Baliq, ming tonna	4,0	108,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,2	104,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,4	101,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,4	112,2

2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 8,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 84,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,0 % i fermer xo'jaliklari, 89,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 11,1 % i fermer xo'jaliklariga, 64,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 24,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 14,8 % i fermer xo'jaliklariga, 73,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 31,6 % i fermer xo'jaliklariga, 9,1% i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 59,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik
mahsulotlari va ovlangan baliqlar (tonna)**

	Go'sht (tirik vaznda)	Sut	Tuxum, ming dona	Baliq
Navoiy viloyati	88 055	246 513	215 515	3 988
Navoiy shahri	418	1 418	1 124	49
Zarafshon shahri	716	722	3 000	-
G'ozg'on shahri	1 133	1 459	933	-
<i>tumanlari</i>				
Konimex tumani	6 777	10 311	5 613	351
Qiziltepa tumani	13 846	49 602	48 465	1 276
Navbahor tumani	11 704	44 567	29 352	980
Karmana tumani	11 296	35 871	45 736	740
Nurota tumani	8 773	14 927	13 831	12
Tomdi tumani	7 693	1 893	1 525	-
Uchquduq tumani	4 951	3 145	451	-
Xatirchi tumani	20 748	82 598	65 484	580

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 536,4 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan 2,2 % ga ko'p), sigirlar 214,1 ming boshga (2,2 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 604,0 ming boshga (1,9 % ga ko'p), parrandalar 4 020,8 ming boshga (3,5 % ga ko'p) yetdi.

2025-yilning 1-iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	536,4	102,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	51,8	106,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	468,0	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	16,6	104,4
shundan sigirlar	214,1	102,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	18,3	111,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	191,2	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,6	107,0
Qo'y va echkilar	2 604,0	101,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	715,5	103,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 476,9	101,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	411,6	100,8
Otlar	23,7	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	10,1	105,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	11,4	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,2	111,3
Parrandalar	4 020,8	103,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	498,2	107,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 097,5	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 425,1	105,9



2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,6 % i fermer xo'jaliklariga, 89,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 27,5 % i fermer xo'jaliklariga, 56,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 12,4 % i fermer xo'jaliklariga, 52,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 35,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2025-yilning 1-iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni (ming bosh)

	Yirik shoxli qoramollar	shunda, sigirlar	Qo'y va echkilar	Parranda lar
Navoiy viloyati	536,4	214,1	2 604,0	4 020,8
Navoiy shahri	1,9	0,7	5,6	55,5
Zarafshon shahri	1,3	0,5	10,4	56,6
G'ozg'on shahri	3,3	1,4	36,1	9,5
<i>tumanlari</i>				
Konimex tumani	26,0	11,3	595,3	206,7
Qiziltepa tumani	149,3	45,3	261,9	952,7
Navbahor tumani	82,2	30,1	306,2	443,4
Karmana tumani	65,2	24,1	138,1	988,1
Nurota tumani	45,6	22,1	444,3	159,3
Tomdi tumani	6,3	2,3	383,5	60,6
Uchquduq tumani	6,0	2,9	164,9	24,6
Xatirchi tumani	149,3	73,4	257,7	1 063,8

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.



Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
S. Tuyg'unov
79 223-23-40 (8610)

Manzil:

